

QURILISH KORXONALARIDA MODDIY-TEXNIK BAZANI MODERNIZATSIYA QILISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Buriyev Xakim Toshimovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Biznesni boshqarish” kafedrası professori v.b., i.f.d.

[ORCID: 0009-0005-9093-3844](https://orcid.org/0009-0005-9093-3844)

E-mail: x.buriyev@samdaqu.edu.uz

Raxmonova Feruza Musakulovna

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Biznesni boshqarish” kafedrası dotsenti v.b.

[ORCID:0009-0001-4700-4207](https://orcid.org/0009-0001-4700-4207)

E-mail: rahmonova.feruza@samdaqu.edu.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada qurilish sohasida moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda moddiy-texnik bazaning ahamiyatini oshirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda qurilish ishlab chiqarishini konsentratsiya qilish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalashtirish mexanizmlari moddiy-texnik bazani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, qurilish industriyasi korxonalari va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish korxonalari, moddiy-texnik baza, ishlab chiqarish konsentratsiyasi, ixtisoslashtirish, kooperatsiya, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы эффективного использования материально-технических ресурсов в строительстве и повышения значимости материально-технической базы в модернизации производственных процессов. В исследовании изучены механизмы концентрации, специализации и кооперации строительного производства как основные направления развития материально-технической базы. Также обоснована необходимость усиления сотрудничества предприятий строительной отрасли и научно-исследовательских учреждений.

Ключевые слова: строительные предприятия, материально-техническая база, концентрация производства, специализация, кооперация, экономическая эффективность.

Abstract

This article examines the issues of effective use of material and technical resources in the construction industry and increasing the importance of the material and technical base in modernizing production processes. The study examines the mechanisms of concentration, specialization, and cooperation in construction production as the main directions for developing the material and technical base. The need to strengthen cooperation between construction industry enterprises and research institutions is also justified.

Keywords: construction enterprises, material and technical base, concentration of production, specialization, cooperation, economic efficiency.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida qurilish sohasi strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, sanoat korxonalarini, transport kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy obyektlarni barpo etish qurilish tarmogʻining samarali faoliyatiga bogʻliq. Shu nuqtai nazardan qurilish korxonalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish masalasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Moddiy-texnik baza qurilish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar, qurilish materiallari hamda ishlab chiqarish infratuzilmasidan iborat. Ushbu resurslarning yetarli darajada shakllantirilishi va samarali boshqarilishi qurilish ishlarining sifati, muddati va iqtisodiy samaradorligini belgilab berishini hisobga olib, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda qurilish industriyasini rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalari koʻplab xorijlik va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari M.Porter, P.Druker, M.Королева, А.Павлов, [1],[2],[3],[4] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B.A.Abdukarimov, X.Buriyev, Yu.Turdibekov, I.Usmanov, B.Jumaniyozov, Sh.Rasulova, M.Saidov, A.Xudoyberdiyev [5],[6],[7],[8],[9],[10],[11] va boshqalar tomonidan ham qurilish sohasini modernizatsiya qilish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Bozor munosabatlari sharoitida qurilish korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi ortib borayotgani ularning moddiy-texnik bazasini mustaqil ravishda rivojlantirish masalasini yanada dolzarb qilib qoʻymoqda. Shu sababli mazkur maqolada qurilish korxonalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishning asosiy usullari va mexanizmlarini tahlil qilish maqsad qilingan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda qurilish korxonalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilishda tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Qurilish ishlab chiqarishida konsentratsiya, ixtisoslashtirish va kooperatsiya omillarining samaradorlikka taʼsiri nazariy va amaliy jihatdan oʻrganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida moddiy-texnik bazani rivojlantirish yoʻnalishlari umumlashtirildi. Shuningdek, qurilish korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari va resurslardan foydalanish holati mantiqiy tahlil asosida baholandi. Tadqiqotda modernizatsiya jarayonlarini baholashda iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik daraja mezonlari qoʻllanildi. Olingan natijalar asosida amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududi va joyini tanlashga ta'sir qiladigan barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo'lish lozim.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini optimal rivojlantirish va joylashtirishning iqtisodiy-matematik modelini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda xom ashyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish manbalari, korxonalarni joylashtirish mumkin bo'lgan hududlar, ishlab chiqarish quvvatlari, transport xarajatlari, qurilish obyektlarining hududiy joylashuvi va boshqalar hisobga olinishi lozim. Bu holatda masalani optimal yechish mezonini odatda kelgusida ishlab chiqariladigan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishi, ayni paytda korxonani yaratish va joylashtirishda xarajatlarning imkon qadar kam bo'lishidir.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri qurilish industriyasi korxonalari hamda qurilish konstruksiyalari, detallari va materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni loyihalashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashdir.

Bunda ushbu o'zaro munosabatlarning asosida quyidagilar yotishi lozim:

- qurilish industriyasi korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari yuksak darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan, yangi, eng tejamli loyihalarini ishlab chiqish;

- bu korxonalarni xom ashyo va materiallarni, konstruksiyalarni tashishning hamda ishlab chiqarishni kooperatsiyalashni rivojlantirishning ratsional sxemalarini hisobga olgan holda mamlakat hududida joylashtirishning optimal variantlarini tanlash;

- ishlab turgan, birinchi navbatda uzoq muddat ishlab kelayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlash.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, qurilish industriyasi korxonalari va tashkilotlarining xo'jalik yuritishdagi mustaqilligi kuchayib borayotgan bir paytda, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, xo'jalik subyektlari, xususan, subyektlar bilan qurilish sohasida ishlovchi yoki unga bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalarini kuchaytirish masalalari avvalgi paytlardagidek vazirliklar tomonidan emas, balki zarur hollarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda ko'proq qurilish tashkilotlari va korxonalari tomonidan hal qilinmoqda.

Qurilish industriyasi korxonalari va tashkilotlari o'zlarining moddiy-texnik bazalarini rivojlantirish orqali o'z ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlabgina qolmay, balki raqobatli muhitda o'z iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydilar hamda faoliyatlari hayot sikllarini uzaytiradilar. Bunda moddiy-texnik bazani rivojlantirish ishlab chiqarishning faqatgina texnik yoki moddiy ta'minotidagi absolyut o'sishidan yoki iqtisodchilarning iborasi bilan aytganda, ishlab chiqarishning fond bilan ta'minlanganligi oshishidan iborat bo'lib qolmay, balki uning ustuvorlik tamoyillari asosida, maksimal samaradorlikni ta'minlash tamoyili asosida amalga oshiriladi.


Qurilish sanoati korxonalarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish zarurati jahonda va mamlakatimizda sohadagi tendensiyalariga bevosita bog‘liqdir. Ushbu tendensiyalarning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qurilish obyektlarida zamonaviy materiallardan foydalanish. Ushbu tendensiya qurilish materiallari sanoatida texnologiyalarni tubdan o‘zgartirish, yangi jihozlar va vositalarni tezkor kiritishga sabab bo‘ladi;

- qurilish ishlab chiqarishida mehnatning qurollanganligini keskin oshishi. Ishlarni kompleks mexanizatsiyalashda yangi tamoyillar asosida ishlaydigan jihozlarni joriy qilish, pirovard natijada korxonani qayta jihozlash talab qilinadi;

- qurilishni loyihalashtirishda ijtimoiy, ekologik va raqamli iqtisodiyot talablarning qo‘llanishi. Ushbu tendensiya ham qurilish korxonalarida moddiy texnik bazaning o‘zgarishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari qurilish korxonalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi (1-rasm).



1-rasm. Qurilishda moddiy-texnik bazani rivojlantirish yo‘llari.¹

Qurilish ishlab chiqarishi konsentratsiyasi. Qurilish sohasida ishlab chiqarish konsentratsiyasi deganda mablag‘lar, predmetlar va mehnat resurslarining yirik ishlab chiqarish bo‘g‘inlarida bir nuqtaga jamlanish jarayonini tushunish taqozo etiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot konsentratsiyaning moddiy-texnikaviy va innovatsion-ijodiy asosi bo‘lib maydonga chiqadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish butun jamiyat manfaatlari uchun konsentratsiya ustunliklaridan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Konsentratsiyaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqarishda texnik darajaning oshishi og‘ir qo‘l mehnatini bartaraf etish uchun sharoit yaratadi, aqliy va jismoniy mehnat qiladigan xodimlar o‘rtasidagi farqni bartaraf qilish jarayonini tezlashtiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning shakli sifatida konsentratsiya katta iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘ladi. Kichik biznes qurilish tashkilotlarining kichik hajmdagi buyurtmalarini o‘z vaqtida bajarish uchun qurilish materiallari quvvatlarini konsentratsiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Yiriklashgan korxonalar ancha yuqori

¹ Muallif ishlanmasi

darajadagi mehnat unumdorligini, yuqori sifat va past tannarxga ega bo'lgan mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Konsentratsiya ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kombinatsiyalashuvi bilan uzviy bog'langandir. Ixtisoslashgan ishlab chiqarishning rivojlanishi bir jinsli ishlab chiqarish konsentratsiyasining ilg'or shakli sifatida namoyon bo'ladi. Yirik korxonalarda amalga oshiriladigan ishlab chiqarishning kombinatsiyalashuvi ishlab chiqarishni ancha yuqori ilmiy-texnik darajada tashkil etish imkonini beradi.

Konsentratsiyaning yana bir jihati qurilish bozorida yirik biznesning ulushining oshishi bilan bog'liq. Konsentratsiya kichik biznesning tabiiy o'sishi va yirik korxonaga aylanishini belgilaydi.

Ishlab chiqarishning konsentratsiyasi amal qilayotgan korxonalarining ko'lamini ularni kengaytirish, rekonstruksiya qilish yoki texnik jihatdan qayta jihozlash evaziga oshirish; yangi yirik korxonalarni yaratish va yangi ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Yangi yirik korxonalar va birlashmalarining yaratilishi markazlashgan ishlab chiqarish bazasida yiriklashgan ishlab chiqarish yacheykalarining paydo bo'lishiga olib keladi. SHunday ekan, bundan korxonalar o'lchamlarining kengaytirilishi markazlashtirishning natijasi ekanligi kelib chiqadi, ya'ni markazlashtirishni konsentratsiyani amalga oshirishning shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqish qabul qilingan.

Konsentratsiyaning darajasi ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi, ulardan eng asosiysi bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitlarida asosiy ishlab chiqarish; jamg'armalarining hajmi, shu qatorda faol mo'ljallashtirish, energiya qurilmalarining quvvati va shu kabi ko'rsatkichlarning ahamiyati yanada kuchayadi. Konsentratsiya darajasining tavsifnomasi uchun xalqaro miqyosda keng qiyoslash orqali ishchi-xodimlarning sonli ko'rsatkichi qabul qilinadi, lekin bu ko'rsatkich konsentratsiya darajasining dinamikasini hamma vaqt ham aniq ko'rsatavermaydi, chunki ishchi-xodimlarning soni ishlab chiqarishni kengaytirishda mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish natijasida qisqarishi mumkin.

Boshqa sohalardagi singari, qurilishdagi konsentratsiya ham o'ziga xos jihatlarga ega bo'ladi. Ular ya'ni bu jihatlar qurilish mahsulotining ko'chmas mulk ekanligi bilan izohlanadigan qurilish ishlab chiqarishi spetsifikasi orqali yuzaga chiqadi. Shuning uchun qurilishda konsentratsiya ikki yo'nalishda: qurilish tashkilotlarini yiriklashtirish va qurilish obyektlari ko'lamini kengaytirish yoki bitta qurilish maydonida bajariladigan qurilish-montaj ishlari hajmini oshirish evaziga rivojlantiriladi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish. Ixtisoslashtirish ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakli sifatida: tarmoqli, detalli va texnologik kabi uchta asosiy turga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotning har bir tarmog'iga ularning ishlab chiqarishdagi spetsifikasiga bog'liq ravishda iqtisoslashtirishning ko'rsatilgan turlaridan hammasi yoki faqat bir qanchasi tegishli bo'lishi mumkin.

Qurilishda ixtisoslashtirishning ikkita shakli mavjud: birinchi shakl *tarmoqli*, yoki *obyektli* bo'lib xo'jalik jihatdan mustaqil ixtisoslashgan

tashkilotlarning yaratilishida o'z ifodasini topadi; ikkinchi shakl *texnologik* yoki jarayonli shakl qurilish va montaj ishlarining bir jinsli turlari yoki komplekslarini bajarishga ixtisoslashgan xo'jalik jihatdan mustaqil bo'lgan qurilish tashkilotlarini yaratishda o'z ifodasini topadi. Bu tashkilotlar masalan, sanitar - texnik, elektromontaj, jihozlarni montaj qilish va shu kabi ishlarni bajaradi.

Tarmoqli ixtisoslashtirishni kengaytirish xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan turar-joy va madaniy-maishiy soha bo'yicha qurilishning o'sib borayotgan masshtablari bilan shart-sharoitlanadi. Bu esa qurilish tashkilotlari o'z faoliyati doirasini ajrata borib, ma'lum bir tarmoqqa tegishli bo'lgan korxonalarda, masalan yashash binolari, ijtimoiy va madaniy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan obyektlarga jamlanadi. Shuningdek, qurilish tashkilotlarini tarmoqli ixtisoslashtirish, tarmoqlarning spetsifikasiga, ishlab chiqarish texnologiyasining jihatlariga, bino va inshootlarning konstruktiv yechimlariga, ularni qurish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi.

Qurilish ishlab chiqarishi kooperatsiyasini chuqurlashtirish. Ixtisoslashtirishni rivojlantirish va chuqurlashtirish bilan kooperatsiyalashtirish yanada yuqori darajada kengayadi va chuqurlasha boradi.

Kooperatsiyalashtirish - bu ma'lum bir mahsulotlarni birgalikda tayyorlaydigan korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biridir.

Qurilishda kooperatsiyalash deganda xo'jalik jihatdan mustaqil bo'lgan, investitsion jarayonlarda ishtirok etadigan tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi tashkiliy jihatdan mustahkam bo'lgan ishlab chiqarish aloqalari tushuniladi. Amaliyotda bunday aloqadorlik yoki bog'liqlik tashkilotlar va korxonalar tomonidan qurilish obyektlarini bevosita qurish bo'yicha bajariladigan ishlarni birgalikda bajarish, shuningdek, jihozlar, materiallarni birgalikda etkazib berish va birgalikda xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirish bilan o'zining ifodasini topadi.

Qurilishda kooperatsiyaning zarur bo'lishi korxonalar yoki obyektlarni tiklash uchun turli ishlab chiqarish jarayonlarining ko'p sonliligi, qurilishda ishlab chiqarishning texnologik va tashkiliy jihatdan murakkabligi va umuman butun investitsion jarayon bilan izohlanadi. Shuning uchun obyektlarni qurishda ko'p sonli tashkilotlar va korxonalar ishtirok etadi. Ko'p tashkilotlar - obyektlarni tiklashda ishtirok etuvchilarning bir vaqtning o'zida qurilish maydonida ish bajarishi hamda ularning texnologik va tashkiliy jihatdan puxta kelishuv asosida ish yuritishini talab etadi. SHu sababli qurilishda ishlab chiqarishni kooperatsiyalash buyurtmachi, bosh pudratchi va subpudratchi hamda boshqa tashkilotlar o'rtasida ishlab chiqarish - xo'jalik hamkorligini yaratish asosida olib boriladi.

Ishlarning tender shartnomaga muvofiq va o'z muddatida bajarilishiga shuningdek, qurilish ishtirokchilari va jihozlar hamda materiallarni etkazib beruvchi tashkilotlar o'rtasida shartlashilgan tartib-intizomni kuchaytirish, hamda o'z vaqtida va sifatli bajarilgan ishlarni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish yuli bilan ham erishiladi.

Qurilishda kooperatsiyaning darajasi qurilish jarayonining uzluksizligi va maromdaligi hamda qurilish-montaj ishlarini bajaruvchi tashkilotlarning mavjud bo'lgan ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanishi, ularning moddiy-texnik bazasi va mehnat resurslari bilan baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish korxonalarining moddiy-texnik bazasi ishlab chiqarish samaradorligi, qurilish ishlarining sifati va bajarilish muddatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Moddiy-texnik resurslardan foydalanish darajasi korxonalarining texnik jihozlanganligi, ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etilishi va boshqaruv mexanizmlarining holatiga bog'liq ekanligi asoslangan. Ishlab chiqarish konsentratsiyasi, ixtisoslashtirish va kooperatsiya qurilish korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshiruvchi asosiy omillar sifatida aniqlangan.

Qurilish korxonalarida ishlab chiqarish konsentratsiyasini rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni kamaytirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi. Yiriklashgan ishlab chiqarish tuzilmalari texnologik jarayonlarni optimallashtirish va zamonaviy texnikalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish qurilish jarayonlarining sifatinı oshirish va ishlarnı bajarish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Tarmoqli va texnologik ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyati qurilish jarayonlarining aniqligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish qurilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi va ishlab chiqarish resurslaridan kompleks foydalanish imkonini beradi. Qurilish ishtirokchilari o'rtasida shartnoma intizomini kuchaytirish, yetkazib berish jarayonlarini muvofiqlashtirish va logistika tizimini takomillashtirish zarur.

Moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish uchun texnik qayta jihozlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash qurilish jarayonlarini avtomatlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Qurilish korxonaları va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tezlashtiradi. Kadrlar malakasini oshirish va ilmiy salohiyatdan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularni texnologik modernizatsiyaga yo'naltirish qurilish korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligi kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. Competitive Advantage of Nations // New York: Free Press, 1990. - 512 p.

2. Drucker P. Management Challenges for the 21st Century // New York: Harper Business, 1999. - 304 p.

3. Королева М., Кондюкова Е., Дайнеко Л., Караваева Н. Экономика строительного предприятия // Екатеринбург. Издательство Уральского университета, 2019. - 202 с.

4. Павлов А. Экономика строительства // учебник. Москва: Издательство Юрайт, 2026. - 729 с.

5. Abdukarimov B.A. Qurilishda logistika va moddiy resurslarni boshqarish. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. - 180 b.
6. Buriyev X., Turdibekov Yu., Toshimov A. Qurilish iqtisodiyoti // Darslik. Toshkent: Dimal, 2024. - 368 b.
7. Buriyev X., Usmanov I. Qurilishni boshqarish va iqtisodiyot // Darslik. Toshkent: Dimal, 2026. - 320 b.
8. Jumaniyozov B. Qurilish ishlab chiqarishini moddiy-texnik ta'minotni tashkil qilish. - Toshkent, 2021. - 31 b.
9. Rasulova Sh.G., Abdurasulov D.O. Qurilish moddiy-texnik bazasi va taraqqiyot istiqbollari // Наука и инновация. - 2024. - №2(38). - В. 102-105.
10. Saidov M.S. Qurilish industriyasida texnik va texnologik yangilanish. - Samarqand, 2022. - 160 b.
11. Xudoyberdiyev A.A. Qurilishda investitsiya va modernizatsiya jarayonlari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 200 b.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**